

QASHQADARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-iyun*



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. (75)221-44-28**

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 6430 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 17 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6413 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 10364,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,6 % ga o'sish ta'minlandi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 499,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 103,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 8475,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1388,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,0 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	10364,0	107,6
Qarshi sh.	2111,6	108,2
Shahrisabz sh.	945,3	107,8
G'uzor	454,7	110,5
Dehqonobod	358,6	105,3
Qamashi	772,0	105,9
Qarshi	416,1	107,6
Koson	900,4	108,2
Kitob	560,2	108,2
Mirishkor	378,2	106,0
Muborak	313,5	105,9
Nishon	429,5	108,1
Kasbi	462,7	105,3
Ko'kdala	370,9	110,0
Chiroqchi	921,5	106,4
Shahrisabiz	389,8	112,7
Yakkabog'	578,9	105,3


2024- yilning yanvar-iyun oylarida 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan viloyatning Shahrisabz (112,7 %), G'uzor (110,5 %), Ko'kdala (110,0 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-iyun)




So'ngi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ni tashkil qildi.

2023- yil va 2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida o'sish sur'ati 107,6 % ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 20,4 % bilan 2111,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Muborak tumani 3,0 % bilan 313,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so'm




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-iyun oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra 8475,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 7,9% ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 81,8 % ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 103,1 % ga ko'paydi va 499,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,8 % ulushiga to'g'ri keldi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Muborak (99,5 %) Mirishkor (99,2 %), Nishon (99,2 %) va Qamashi va Kasbi (99,2 %), Dehqonobod (99,0%) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shahrisabz tumani (15,9 %), Qarshi shahri (11,6 %), Ko'kdala (6,8 %) va Koson (5,9 %) tumanlarida kuzatildi.

4,8 %

95,2 %

 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*




2024- yilning yanvar-iyun oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2897,1 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,2 %) tashkil etdi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-iyun), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	1 388,6	107,0
Qarshi sh.	106,5	103,0
Shahrisabz sh. <i>tumanlar:</i>	40,5	108,0
G'uzor	82,2	107,5
Dehqonobod	43,3	104,8
Qamashi	96,4	107,9
Qarshi	25,3	108,5
Koson	65,7	108,8
Kitob	78,3	107,4
Mirishkor	12,3	107,9
Muborak	71,1	118,0
Nishon	83,2	114,0
Kasbi	30,7	83,9
Ko'kdala	138,3	106,8
Chiroqchi	400,1	107,5
Shahrisabz	43,3	103,5
Yakkabog'	71,3	104,5


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-iyun)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar- iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1388,6 mlrd.so'm-ni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,0 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 597,1 mlrd. so'm-ni (109,5 %),chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 791,5 mlrd so'mni tashkil etdi (107,8 %).













2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 597,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (333,2 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>333,2 mlrd. so'm</p>  <p>55,8 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>93,7 mlrd. so'm</p>  <p>15,7 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>26,9 mlrd. so'm</p>  <p>4,5 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>40,0 mlrd. so'm</p>  <p>6,7 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>13,7 mlrd. so'm</p>  <p>2,3 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>14,9 mlrd. so'm</p>  <p>2,5 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>30,5 mlrd. so'm</p>  <p>5,1 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>17,9 mlrd. so'm</p>  <p>3,0 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>5,4 mlrd. so'm</p>  <p>0,9 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>6,6 mlrd. so'm</p>  <p>1,1 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>2,8 mlrd. so'm</p>  <p>0,8</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>9,6 mlrd. so'm</p> <p>1,6 %</p>

2024- yilning yanvar-iyun oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 791,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 546,9 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 208,2 mlrd. so'mni, otlar – 32,4 mlrd. so'mni, parrandalar – 4,0 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>350,6 mlrd. so'm</p>  <p>44,3 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>152,0 mlrd. so'm</p>  <p>19,2 %</p>	<p>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>44,3 mlrd. so'm</p>  <p>5,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>122,7 mlrd. so'm</p>  <p>15,5 %</p>	<p>Otlar</p> <p>32,4 mlrd. so'm</p>  <p>4,1 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>85,5 mlrd. so'm</p>  <p>10,8 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,8 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>3,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,4 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1471 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1471 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	285,6	107,0
Qarshi sh.	98,3	114,5
Shahrisabz sh. <i>tumanlar:</i>	21,9	118,8
G'uzor	12,0	93,5
Dehqonobod	6,3	89,0
Qamashi	6,2	123,8
Qarshi	14,3	148,8
Koson	11,1	121,0
Kitob	27,2	104,0
Mirishkor	3,9	112,0
Muborak	17,5	65,7
Nishon	27,2	115,3
Kasbi	6,2	80,7
Ko'kdala	5,4	132,7
Chiroqchi	11,3	106,3
Shahrisabz	7,2	131,7
Yakkabog'	9,6	86,4

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 285,6 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 94,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Viloyat bo'yicha	1 446,7	100,0
Qarshi sh.	1 225,6	84,7
Shahrisabz sh.	5,0	0,3
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	2,2	0,1
Dehqonobod	3,4	0,2
Qamashi	0,9	0,1
Qarshi	133,9	9,3
Koson	7,7	0,5
Kitob	11,6	0,8
Mirishkor	5,0	0,3
Muborak	4,5	0,3
Nishon	7,6	0,5
Kasbi	12,0	0,8
Ko'kdala	1,7	0,1
Chiroqchi	14,3	1,0
Shahrisabz	0,4	0,0
Yakkabog'	10,9	0,8


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (1225,6 mlrd. so'm), Qarshi (133,9 mlrd. so'm) Chiroqchi (14,3 mlrd. so'm) va Kasbi tumanlari (12,0 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-iyun oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 1446,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 88,6 foizga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 646,4 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 98,0 foizga ko'paydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektлари savdo hajmi – 937,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 82,2 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2911,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,4 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi hajmi statistik hisoblarga qaraganda 2580,5 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 111,2 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,6 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2098 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 7 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2091 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori hajm ega yirik korxonalar Qarshi (1351,2 mlrd. so‘m) va Shahrisabz shaharlari (291,8 mlrd. so‘m), Qarshi (249,4 mlrd. so‘m) va Koson tumanlarida (171,0 mlrd. so‘m) qayd etildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo‘yicha	2911,4	107,4
Qarshi sh.	1351,2	115,4
Shahrisabz sh.	291,8	122,6
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	87,5	106,4
Dehqonobod	17,2	128,4
Qamashi	154,2	2,4 m.
Qarshi	249,4	107,3
Koson	171,0	66,3
Kitob	156,1	102,3
Mirishkor	41,4	52,6
Muborak	52,9	119,9
Nishon	30,5	59,4
Kasbi	51,5	49,9
Ko‘kdala	7,0	68,3
Chiroqchi	69,2	72,3
Shahrisabz	56,0	85,6
Yakkabog‘	124,5	2,1 m.